



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 04 2022 YIL 25 APREL



## KOFIH JAMG'ARMASI VA AKADEMIYA O'RTASIDAGI HAMKORLIK

**Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori  
A. Shadmanov Koreya xalqaro sog'liqni saqlash  
KOFIH jamg'armasi bilan 5 million AQSH dollarlik  
shartnoma loyihasini imzoladi.**

Grant 2022-2025 yillarga mo'ljallangan bo'lib, dunyoning tibbiyot markazlaridan yetakchi tibbiyot mutaxassislarini jalb etish orqali Toshkent tibbiyot akademiyasining ta'lim va pedagogik salohiyatini oshirishga qaratilgan. Unda Akademiya xodimlarining ushbu markazlarda amaliyot o'tashi va zarur tibbiy asbob-uskunalar xarid qilinishi ham ko'zda tutilgan. Grant fondida ishtirok etish uchun Toshkent tibbiyot akademiyasidan "Dr. LEE Jong-wook Fellowship" 2022 yil uchun 4 ta nominatsiya taqdim etgan.

- KOFIH va Akademiya o'rtasidagi ushbu ijobiy hamkorlik boshqa qo'shma loyihalarda ham davom etadi. O'zbekiston Koreya bilan xalqaro hamkorlikdan mamnun, - dedi A. Shadmanov.

Ma'lumot uchun, hozirgi kunda Toshkent tibbiyot akademiyasi xorijiy davlatlar bilan 66 ta hamkorlik shartnomasiga ega bo'lsa, ulardan 9 tasi Janubiy Koreyaning Yonsey universiteti, Jangan universiteti, ASAN tibbiyot markazi, Ulsan universiteti, korporatsiya tibbiyot rahbari bilan 4 tomonlama qo'shma shartnoma, Toshkent shahridagi Inha universiteti bilan birgalikda "Hanjin Information Systems & Telecommunication Co.,Ltd.", "U-SHIN C&C Co.,Ltd.", "HeSel Inc.", Seul Milliy Universiteti Bundan Klinikasi, Xvasun Cheongnam milliy universiteti kasalxonasi, Aju universiteti, Korea Corporation Mesh Nown Co, Ltd, KOICA tashkilotlari hisoblanadi.

## YOSHLAR BANDLIGI – TARAQQIYOT POYDEVORI

**Bugun jamiyatimizni haqli  
ravishda kelajak madadkori  
yoshlar desak hech mubolag'a  
qilmagan bo'lamiz.**

Davlatimiz rahbari boshchiligida yoshlar siyosati borasida qilinayotgan ijtimoiy-siyosat ham aynan yoshlarni kelajakda eng yetuk kadr qilib tarbiyalash va ajdodlarga monand avlod bo'lib, Uchinchi Renessans davrini boshlab berishdek ulkan vazifaga ham tayyorlashdir. Hozirgi kundagi statistikada Vatanimiz aholisining 60 foizidan ortig'i yoshlar ekanligini inobatga olsak bu juda to'g'ri qaror ekanligi ayon bo'ladi.

Ilm-ma'rifatli va salohiyatli kadrlarni yetishtirish esa oliy ta'lim muassasalarining ustuvor vazifasidir. So'nggi besh yilda oliy o'quv yurtlarining nafaqat soni oshdi, balki ta'lim sifatiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda talabalarni nafaqat ilm-ma'rifat va innovatsiyalarga, balki ijtimoiy sharoiti, yashash tarzi, moddiy va ma'naviy muhitiga ham yetarlicha e'tibor qaratilmoqda. Talabani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbiy salohiyatini oshirish, jamiyatga daxldorlik hissini yuksaltirish va bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish uchun tizimli, samarali ishlar olib borilmoqda.

Muhtaram Prezidentimizning 2022 yil 4 mart kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishida ham aynan oliy ta'lim muassasalari talabalari bandligini ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Ushbu yig'ilishning qisqacha mazmunida talabalar bandligini ta'minlash orqali ularning turmush darajasini yaxshilash, talabalar o'rtasida qilinayotgan jinoyatlarining oldini olish, ma'suliyatli kadrlar tayyorlash masalalari ko'rib chiqildi. Xususan hozirgi kunda 510 ming talaba kunduzgi shaklda, jami 820 ming talaba oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqda. Bu talabalar bandligini ta'minlash uchun 100 mingga yaqini qo'shimcha daromad topishga ehtiyoji borligini bildirgan. Shuningdek, talabalar ishlashi mumkin bo'lgan 105 mingta bo'sh (vakant) ish o'rinlari borligi ham aytib o'tildi.

(Davomi 3-betda)

Hikmat



Eng baland minora ham yerdan ko'tarilgay.



Hikmat

**Xabaringiz bormi, TTA yangiliklari****TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
7,5 MILLION DOLLARNI IQTISOD  
QILUVCHI XALQARO GRANT  
YORDAMINI OLDI****Toshkent tibbiyot akademiyasida dunyo bo'yicha  
5000 dan ortiq jurnallarning yangi obuna taqdimoti  
bo'lib o'tdi.**

Akademiyaning sa'y-harakatlari o'laroq Research4Life portali bilan birgalikda Jahon sog'liqni saqlash jamiyati qoshidagi HINARI tashkilotidan jami 7,5 million dollarni iqtisod qiluvchi xalqaro grant yordami qo'lga kiritildi.

Bu Research4Life portali TTA va uning muassasalariga ilmiy va professional ekspertizadan o'tgan materiallarga onlayn kirish imkonini beradi. Ushbu loyihaning maqsadi sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa tabiiy fanlar sohasida o'qitish, tadqiqot va qarorlar qabul qilishni takomillashtirishga hissa qo'shishdir.

Research4Life materiallari quyidagi to'plamlarga birlashtirilgan:

- Hinari biotibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi adabiyotlarning dunyodagi eng yirik to'plamlaridan biridir.

- AGORA – oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi noyob raqamli materiallar to'plami.

- ARDI portali ilmiy va texnik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

- GOALI – huquq va ijtimoiy fanlar, jumladan siyosatshunoslik, iqtisod, falsafa, tarix va boshqalar uchun ixtisoslashtirilgan kutubxona.

- OARE portali atrof-muhit, jumladan, ekologiya, geografiya, energetika va boshqalarga oid axborot resurslarini taqdim etadi.

Ularni tadqiqot ishlarida raqamlashtirish davrida jurnallardan elektron formatda, ayniqsa retrospektiv ma'lumotlar bazalari ko'rinishidagi jurnallardan kengroq foydalanish, virtual fond yaratish yosh olimlar, doktorantlar va aspirantlarga yangi ma'lumotlar olish va ulardan keng foydalanishga yordam bermoqda. Ushbu loyihaga ko'ra, TTA xodimlari TTAning istalgan joyidan (kafedra, bo'lim, operatsion blok yoki yotoqxona) so'nggi ma'lumotlar bo'yicha kerakli ma'lumotlarni olishlari mumkin.

**XALQARO  
ALOQALAR****Toshkent tibbiyot akademiyasida tibbiy ta'lim sohasidagi hamkorlik davom etmoqda.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.Shadmanov I.M.Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universitetining Jarrohlik kafedrasida professori jarroh-onkolog Vetshev Fedor Petrovich bilan uchrashdi.

Uchrashuvda I.M.Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, tibbiy ta'limni rivojlantirishda bir qator kelishuvlarga erishildi.



(Boshi 1-betda)

Toshkent tibbiyot akademiyasida hozirgi kunda jami 8080 nafar talaba bakalavr, magistratura va klinik ordinatura yo'nalishida tahsil olmoqda. Talabalar bandligini ta'minlash vazifalarini amalga oshirish maqsadida birinchi navbatda akademiyada tahsil olayotgan talabalardan so'rovnomalar olish tashkil etildi. So'rovnomalar yakunida talabalarning 780 nafari ishlab daromad topishga ehtiyoji borligi aniqlandi. Keyingi o'rinda talabalar uchun bosh (vakant) ish o'rinlari yarmarkasi tashkil etildi. Ushbu yarmarkada 50 dan ortiq davlat idoralari va xususiy tashkilotlar jami 300 dan ortiq bo'sh (vakant) ish o'rinlari bilan qatnashishdi. Talabalar yarmarkada o'ziga ma'qul kelgan muassasalar bilan suhbatlar o'tkazib ishga kirish uchun arizalar yozishdi. Rektorimiz Alisher Shadmanov ham shaxsan talabalar bilan bir qatorda yarmarkada ishtirok etib, bo'sh ish o'rinlar haqida ma'lumot olib, talabalarga o'z maslahatlarini

berdilar. Ushbu yarmarkalarni uzviy davom ettirish va talabani yashash joyiga yaqin bo'lgan hududdan ish topishi uchun har o'nying 15-sanasiga qadar tumanlar kesimida yarmarkalar o'tkazish belgilandi. Akademiyaning texnik va xo'jalik xodimi sifatida mavjud bo'lgan 40dan ziyod bo'sh (vakant) ish o'rinlariga talabalarni salohiyatidan

demiyasi va Sog'liqni saqlash vazirligi, tibbiyot birlashmalari va Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda qo'shma memorandumlar tuzish rejalashtirilgan.

Shuningdek, akademiyaning bo'sh xona va inshootlaridan unumli foydalanilgan holda talabalar tomonidan rus tili, ingliz tili va kompyuter savodxonligi yo'nalishida pullik kurslar tashkil etildi. Talabalar tashabbusi bilan tashkil etilgan fan, badiiy havaskorlik va sport to'garaklarga ham haq evaziga shartnoma tuzilib, talabalarni ishlashiga imkoniyat yaratilib berilmoqda. Bu tizimni ishlarni yanada samarali qilish borasida keyingi bosqichlarda talabalarning kamida 50 foizini qamrab olgan holda o'z xohish istaklari bilan ish bilan ta'minlash reja qilingan. O'z kasbi orqali fidoiy va ma'suliyat his qiladigan yoshlarga doim akademiya ko'mak berishni davom ettiradi.

**Suhrob RO'ZMETOV,**

**Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi**

## YOSHLAR BANDLIGI – TARAQQIYOT POYDEVORI

kelib chiqib ishga olindi. Bundan tashqari, iqtidorli talabalardan iborat guruhlarni turli loyiha va grant dasturlariga olish orqali 14 nafar talaba ish bilan ta'minlandi. Bitiruvchi talabalarni kelgusida ish bilan doimiy ta'minlash uchun Jizzax, Sirdaryo va Namangan viloyati hokimligi va talabalar uchrashuvi joylarga chiqib tashkil etildi. Bunda talabalar o'zi doimiy yashash hududidan ish topib shartnomalar tuzib kelishdi. Toshkent tibbiyot aka-

## AMIR TEMUR DAVRIDA TIBBIYOT ILMI

**Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli kishilarning sog'lom hayoti va turmush darajasi, fan va madaniyat hamda qadriyatlar taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.**

Ijtimoiy tuzumning har birida o'ziga xos va mos tabobat, tabiblik, shifokorlik, bemorni davolash kabi ulug' g'oyalari bo'lgan. Jumladan, sohibqiron Amir Temur davrida ham fan, madaniyat, san'at va adabiyot yuksalish bilan birga tibbiyot ham rivojlangan.

Buyuk Amir Temur tibbiyot ilmi natijalaridan, xalq tibbiyotining yuksak fazilatlaridan nafaqat mamlakatda tinch, osoyishtalik davrida, balki o'zining ko'p sonli armiyasi bilan uzluksiz urush harakatlari, harbiy urushlari davrida ham samarali foydalangan. Tarixiy manbalarda va bobomiz merosini o'rgangan olimlarning asarlarida keltirilishicha, Amir Temur biron-bir harbiy yurishni boshlamog'chi bo'lsa, u nafaqat harbiy jangchilarni, hatto oddiy hizmatchini, harbiy janglarda qatnashmaydigan amaldorlarni, xodimlarni, harbiy sarkardalarni, amirlarni ham albatta tibbiyot xizmati ko'rigidan o'tkazganlar. Bu tartibni u nihoyatda qattiqo'llik bilan amalga oshirgan. Harbiy jangchilarga xizmat qiluvchi har bir xizmatkorning sog'liq-salomatligi chuqur tekshirilib turilgan. Birorta kasallik alomati bo'lgan yoki oldindan birorta yuqumli kasallik bilan og'rikan kishilarni armiyaga olmagan, harbiy janglarning tarkibiy salohiyati tamoman sog'lom odamlar bo'lib, ular uzluksiz tibbiyot ko'rigidan o'tkazilib turilgan. Ushbu tartibga qat'iy rioya qilinishini Amir Temur "Temur tuzuklari"dagi ushbu talabda o'z ifodasini topgan, ya'ni unda: "Asil va shijoatli sipohiyzoda qaysi toifadan bo'lmasin, unga o'rin berib, qilgan xizmatiga va ishiga yarasha tarbiyat qilsinlar", – deyilgan. Amalda Sohibqiron bu tarbiyani ko'p sonli kuchli armiya va mamlakat osoyishtaligini saqlagan baquvvat sog'lom sipohiy larni yetishtirishda uzluksiz foydalangan. Bu tarbiyaviy siyosiy tizim o'sha davrda davlat ahamiyatiga molik

siyosatga aylangan. Tarixdan ma'lumki, mamlakatda urush harakatlari olib borilar ekan, bunday vaziyatda turli xil kasalliklar tarqalishi tufayli yuqumli kasalliklar vujudga keladi, kasalliklarning keng tarqalishi oqibatida esa xalq ommasini boshiga og'ir kulfatlar tushadi. Buning natijasida minglab odamlar nobud bo'ladi. Ammo Amir Temur davrida ana shunday tabiiy va ijtimoiy sohaga taalluqli ofatlarning yuz berganligi haqida birorta manbalarda ma'lumotlar keltirilmagan. Buning sababi o'sha davrda qo'shinlar ketidan minglab aravalar, tuyakarvonlarida bevosita jangda qatnashmaydigan xodimlar, amaldorlar, shaytlar, mullolar, savdo-sotiq, oziq-ovqat sohasi xodimlari bilan birgalikda hamshiralari, tabiblar, veterinariya xizmatchilari kabi mutaxassislar borishi kerak bo'lganligini va ular tomonidan bevosita mohir sarkarda Amir Temur boshchiligidagi turli xil kasalliklar tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan o'ziga xos boshqarish tizimining ishlab chiqilganligini o'sha davrda yashagan tarixchilar ko'rsatib o'tishgan.

Shu bilan bir qatorda buyuk sohibqiron tabobat ilmining rivojiga katta sharoit yaratib bergan va xalq tibbiyotini, tabobat ilmiy markazlari, binolarini qurdirgan.

Bularning bari esa buyuk ajdodimiz Amir Temurning davlat va uni boshqarishda qanchalik mohir kuch-qudratli saltanat egasi, uzoqni ko'ra biladigan metin iroda, zukko aql va fikr egasi bo'lish barobarida o'z fuqarolarining farovon turmushi va salomatligini muhofazalash haqida qayg'uradigan dono davlat arbobi bo'lganligidan dalolat beradi.

**Shahnoza XODJANOVA,**

**2-son fakultet va gospital terapiya kafedrasini assistenti, PhD**

Hikmat



*Kitob – bilim dunyoga bir ko'prik.*



Hikmat

**Bahor – fasllarning kelinchagi, malikasi va parisidir, aprel (savr) oyi esa bahorning javhari va gavharidir. Chunki bu oyga kelib olam gulga chulgʻonadi, barcha mavjudotlari va mahluqotlari uygʻonadi, olam yashil tusga kiradi, togʻ daralarda haqqushlarning yangrogʻi va chorlovi eshitiladi.**

## BAHORNING QOʻSHALOQ BAYRAMI

Bu oyda Turon zaminining eng ulugʻ farzandlaridan biri, jahonda haqiqiy jahongir va fohit deb tan olingan beshta insonning biri, davlat arbobi, davlatchilikning birinchi qomusi "Temur tuzuklari"ni yozdirgan Amir Temur hazratlari tavallud topgan. Shu bilan birga har yili davlatimiz miqyosida bahor va goʻzallikka oid koʻplab maʼnaviy, maʼrifiy tadbirlar bu oyda oʻtkaziladi. Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati, ARM boʻlimi xodimlari, dekanat bilan hamkorlikda ikkita tadbir oʻtkazildi. Amir Temur bobokalonimizning tavallud ayyomini nishonlash kitobxonlikni targʻib qilish tadbirlariga qoʻshilib ketdi. Tadbirda Akademiyaning oltinchi bosqich va deyarli barcha fakultetlari talabalari faol ishtirok etdi. Dastavval davolash fakulteti birinchi bosqich talabasi Goʻzalxon Amir Temurning yorqin va ibratli hayot yoʻli haqida juda taʼsirli taqdimot oʻtkazdi, uning muhokamasida hamma ishtirok etdi. Ushbu namoyishdan jahongirning hayot yoʻlidagi koʻplab yangi maʼlumotlarini ololdik.

Tadbirning kitobxonlikni targʻib qilish boʻyicha oʻtkazilgan navbatdagi qismida biz jahonning ilk bitiklari – papirus qogʻozlaridan tortib to 1448 yil Olmoniya hududida injener Gutenberg tomonidan kitobni bosma holda chop etish yoʻlga qoʻyilguniga qadar boʻlgan hattotlik davri, toshbosmadan tortib to yaqin yillargacha davom etgan tipografiya davri va nihoyat bugungi kundagi kompyuter texnologiyalariga asoslangan elektron davrlarigacha toʻxtalib oʻtili. Talabalarning yuzlab savollariga javoblar berildi. Shu bilan birga har bir xonadonda boʻlishi va oʻqilishi lozim boʻlgan kitoblar yuzasidan fikr almashildi. Taʼlim tarbiyaga oid kitoblar, zamonaviy ahli ilmlardan Abdulla Oripov, Oʻtkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, Usmon Azim, Toʻra Sulaymon, Sirojiddin Sayyid, xorij adiblaridan Aziz Nesin, Mixail Bulgakov, Mixail Zoshenko, Aleksandr Belyayevning kitoblari tavsiya qilindi. Shu bilan birga ustozlari komil Abdulla Oripov,



Oʻtkir Hoshimovlar haqidagi xotiralar bilan oʻrtoqlashildi.

Koʻtarinki ruhda oʻtgan tadbir soʻngida Akademiya rahbariyatidan talabalar va ijodkor professor-oʻqituvchilar ishtirokida nazm va nasr toʻgaraklari tashkil etilishi taklifi bildirildi.

**Alijon ZOHIDIY,**  
Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi, Xalqaro Ekologiya i zdorovye cheloveka ilmiy akademiyasi akademigi,  
**Mohidil NAZAROVA,**  
ARM boʻlim mudiri



## OʻZBEKONA ANʼANALAR VA QADRIYATLAR

**Yurtimizning keng goʻshalarida oʻtkazilgani kabi Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyida "Oʻzbekona anʼanalar va qadriyatlar" festivali boʻlib oʻtdi.**



Tadbirni oʻzbek milliy cholgʻu asboblari karnay-surnay navolari jarangi ochib berdi. Tadbirni akademik litsey ijrochi direktori A.Shermurotov kirish soʻzi bilan boshlab, yigʻilganlarni milliy shodiyonimiz bilan qutladi. Yoshlar koʻzida nur qalbida quvonch, bahor ayyomi shodiyonasini oʻzgacha zavq bilan qarshi oldilar. Festivalda akademik litseyning 1 va 2-bosqich oʻquvchilari tomonidan qadimiy anʼanalarga yoʻgʻirilgan Respublikamiz viloyatlari va qardosh xalqlarning tarixiy va milliy qadriyatlarini namoyish etildi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga xos milliy dasturxon festival qatnashchilarida oʻzgacha taassurot qoldirdi. Xorazm va Andijon navolari dillarni jumbushga keltirdi. Voha noz-neʼmatlari-yu, laparlari oʻtmish anʼanalarini jonlantirdi. Qardosh xalqlar mehmondostligi, milliy anʼanalari akademik

litsey oʻquvchilari tomonidan mohirona namoyish etildi. Jumladan, qozoq oʻlanlari, tojik taomlari, qirgʻiz baxshilarining xonishlari, tojik milliy liboslari kechaga oʻzgacha zavq bagʻishladi. Navroʻz kuyi, bahorning orombaxsh navolari tashrif buyurgan mehmonlar va yigʻilganlarda katta taassurot qoldirdi. Tadbirda Oʻzbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universitetining harbiy orkestri jamoasi tashrif buyurib, oʻz kuy-qoʻshiqlari bilan barchani shodiyona bilan tabrikladilar.

Festival yoshlarni qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Nigora HAKIMOVA,**  
TTA akademik litseyi Yoshlar masalalari maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosari



## BARKAMOL AVLOD – YURT KELAJAGI

**Millatning yetuklik darajasi har bir davlatda yoshlarga o'z ma'naviyati va ma'rifatini oshirish uchun xilma-xil shakldagi sharoit yaratilganligi bilan belgilanadi. Yurtimizda yoshlarning ilmiy-texnikaviy, ijod erkinligi davlat tomonidan kafolatlanib, ularni rag'batlantirishga katta e'tibor berilmoqda.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-sonli (13.10.2008 y.) Qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bo'yicha ilm-fan bilan shug'ullanayotgan, namunali o'qiyotgan talabalariga Prezident, I.Karimov, Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, A.Navoiy, Beruniy davlat stipendiyalari berilmoqda, iste'dodli yoshlar "Zulfiya", "Nihol" kabi davlat mukofotlari bilan rag'batlantirilmoqda.

Ana shunday yosh iste'dod egasi, bilimga intiluvchan, iqtidorli yoshlardan biri Toshkent tibbiyot akademiyasi tibbiy-pedagogika fakultetining 402-guruh talabasi Dinara O'ktamovadir. U yaqinda Respublikamizning o'zi singari a'lochi, zukko tengdoshlari qatorida nomdor stipendiyalar tanlovida qatnashib, Islom Karimov, nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi bo'ldi.

Shubhasiz, bu uning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu haqda Dinaraning o'zi shunday deydi: "Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, nafaqat, biz – yoshlarga nafaqat ishonch bildirish, balki ularga o'zligini amalda namoyon etish uchun bor imkoniyatlarni yanada kengaytirish kerak, demakdir. Zamonaviy uslubda bunyod etilib, yangidan jihozlanayotgan maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishimiz uchun yaratilgan shart-sharoitlar hech bir rivojlangan mamlakatlarda yaratilgan imkoniyatlardan qolishmaydi. Bu esa bizni o'z navbatida yanada mas'uliyatli bo'lishga, bildirilayotgan ishonchni oqlashimiz uchun faol harakat qilishga undaydi".

1998 yilda Qashqadaryo viloyatining so'lim Shahrisabz tumanida tug'ilib, ulg'ayib, 2018 yili Toshkent tibbiyot akademiyasiga o'qishga kirgan Dinara ham o'zi tanlagan "shifokorlik"dek muqaddas, ammo, shuning bilan birga o'ta mas'uliyatli kasbni puxta egallash uchun o'tiladigan darslarni qunt bilan o'zlashtirish orqali malakali va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishga intilishni anglagan holda ta'lim jarayonidagi barcha fanlarni mana 4 yil davomida a'lo o'zlashtirishga harakat qilmoqda, talabalar ilmiy jamiyatida faol ishtirok etmoqda. Jumladan, har yili akademiya miqyosida o'tkazilgan TIJning anjumanlarida bolalar



kasalliklari, pedagogika fanlari bo'yicha qatnashib, 1-2 o'rinlarni egalladi. 2020-2022 o'quv yillari davomida esa bir necha bor xalqaro fan olimpiadalari va anjumanlarida muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Jumladan, "Healthy lifestyle xalqaro olimpiada va 2021 yilda o'tkazilgan "Abu Ali ibn Sino ta'limotidan – Uchinchi Renessangacha" II-xalqaro fan olimpiadasida reabilitologiya bo'yicha 1-o'rin g'olibi bo'lgan.

Shuningdek, Dinara ustoz dotsent Gulbahor Rahmonova rahbarligida tibbiyotning onkologiya yo'nalishining dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib bormoqda va shularning natijasi sifatida "Koronavirus etiologiyali o'tkir pnevmoniyaning diagnostikasi algoritmi" va "Koronavirus etiologiyali o'tkir pnevmoniyaning davo monitoringini baholashning radiologik algoritmi" mavzuidagi ilmiy ish bo'yicha 2 ta patent olindi, 2020-2021 o'quv yilida "Yil talabasi – 2021" tanlovida "Yilning eng faol ixtirochi-novator talabasi" yo'nalishida 1-o'rinni egalladi. Uning 20 dan ortiq ilmiy ishlari maqola va tezislar ko'rinishida xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlar to'plamlari va jurnallarida chop etilgan. Bularning e'tirofi sifatida Dinara "MDHning eng yaxshi talabasi tanlovida 2-o'ringa loyiq topilib, maxsus ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Tinib-tinchimas, zukko Dinaraning o'qishdagi yutuqlari, ilmiy izlanishlaridagi mehnat-sevarligini hisobga olib, u Akademiya Ilmiy Kengash stipendiyasi va akademiya Rektorati tomonidan ta'sis etilgan "Zulfiya" nomidagi ko'krak nishoni bilan ham rag'batlantirildi. U o'qishdan bo'sh vaqtlarini ham mazmunli o'tkazishga harakat qiladi:

badiiy kitoblar mutolaa qiladi, she'rilar yod oladi, shuning uchun ham Dinara 2019 yilda Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Kitobxonlik" tanlovida 2-o'rinni egallagan.

Dinaraning orzulari ham o'ziga xos. Kelgusida ham "onkologiya" sohasida ham kasbiy ham ilmiy faoliyat olib bormoqchi. U bu haqda shunday fikr bildirdi: "Shifokorlik kasbini tanlashimga sabab eng avvalo insonlarga foydam tegishi va kimningdir sog'lig'ini mustahkamlash orqali bir oilaga quvonch bag'ishlay olish. Bundan tashqari, dunyodagi eng sharaflilardan biri bu shifokorlikdir. Bu kasbni bolaligidan orzu qilib, oq xalat kabi ko'ngli ham pok shifokor bo'lish uchun tinmasdan harakat qilib kelmoqdaman. Endilikda onkologiya sohasini tanlashni niyat qilyapman. Sababi bugungi kunda bu kasallik bilan og'riganlarning sonini oshib borayotganligi va bemorlarning dardiga shifo topish, aynan shu sohada yangilik qilish maqsadim bor".

Biz ham orzulari o'zi singari beg'ubor Dinara kabi izlanuvchan, iqtidorli talabayoshlarimizning safi yanada kengayishini istagan holda unga orzularining ro'yobga chiqishini tilab qolamiz!

Darhaqiqat, yoshlar – katta kuch hisoblanadi. Bu kuchning unib-o'sishi, ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy kamol topishi, jismonan sog'lom bo'lib yetishishi uchun bizning mamlakatimizda juda ko'plab ishlar amalga oshirilgan va kelgusida ham yana oshiriladi.

Zotan, tashabbuskor, izlanuvchan yoshlar – mamlakatimizning kelajagidir.

**Shoira QODIROVA,**  
Tibbiy-pedagogika fakulteti katta o'qituvchisi



**Xabaringiz bormi, TTA yangiliklari****“TALABALIK BAHORI – 2022”  
FESTIVALI****Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarining  
“Talabalik bahori – 2022” festivali bo‘lib o‘tdi.**

Tadbirni akademiya rektori Alisher Shadmanov kirish so‘zi bilan ochdi. Navro‘z umumxalq bayramining o‘ziga xosligi, xalqimiz hayotida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritib, tadbir ishtirokchilarini bayram bilan qutladi.

Ko‘tarinki ruhda o‘tgan tadbirda akademiyaning barcha fakultetning

ijodkor talabarlari 36 ta nominatsiya bo‘yicha bellashdi. “Talabalik bahori – 2022” festivalida akademiya miqyosida o‘tkazilgan 11 ta yo‘nalishdagi tanlov g‘oliblari akademiya rektori tomonidan diplom va pul mukofoti bilan taqdirlandi.

**Shafaat BEKNAZAROVA****PARKENTLIK QIZ MAHALLASIDA  
KUTUBXONA QURADI****Marjona Qiyomova Toshkent tibbiyot  
akademiyasi talabasi. Parkentlik tirishqoq  
qiz o‘z mahallasi bolalarining o‘qimishli,  
ziyoli bo‘lishini orzu qiladi.**

Germaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasi kichik loyihalar uchun grantlar tanlovini e‘lon qilganda Marjona ikkilanmay “Kumushkon” mahallasida kutubxona ochish loyihasi bilan ishtirok etdi.

Elchixonada 200 ga yaqin ishtirokchilar orasidan Mar-


jona Qiyomovanning loyihasini eng yaxshisi deb topdi va uni amalga oshirishga 50 mln. so‘m miqdorda mablag‘ ajratadigan bo‘ldi. Elchixonada xodimlari Parkentga kelib, Marjona Qiyomova ishtirokida loyihani amalga oshirish ishlari bilan tanishdi.

**YUGURISH MARAFONIDA  
BARCHANI ORTDA  
QOLDIRDI**

Olmazor tuman hokimligi va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bilan hamkorlikda “Ajdodlar matonati va jasorati avlodlar uchun namunadir” shiori ostida 5300 metrga ommaviy yugurish musobaqasida Toshkent tibbiyot akademiyasining

100dan ortiq talaba-yoshlari ham munosib ishtirok etdi.

Musobaqada Morfologiya yo‘nalishi 1-kurs magistranti Farrux Hamroyev barcha raqiblarini ortda qoldirib, marra chizig‘ini birinchi kesib o‘tdi. Natijada g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.



**Inson hayotiga baho berilar ekan, uning qanchalik uzunligiga emas, balki qanchalik mazmunga ega ekanligiga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun inson dunyoga kelibdiki o'z aql-zakovati va mehnati bilan insoniyat tarixida o'ziga xos iz qoldirishga harakat qiladi.**

Shunday insonlar borki qisqa vaqt mobaynida o'z shijoati bilan sermazmun hayot kechiradi. Ana shunday insonlardan biri ustozimiz tibbiyot fanlari doktori, professori Po'lat Inoyatovich Toshxo'jayevdir.

Butun umri, hayoti, faoliyatini tibbiyotga baxshida etib, O'zbekiston tibbiyotiga munosib hissa qo'shgan va oramizdan oxirat sari ketgan ustozimiz Toshxo'jayev Po'lat Inoyatovich haqida satrlar bitishga jazm etdik.

**P o ' l a t**  
Toshxo'jayev 1935 yilning 24 oktyabrida Toshkent shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. 1954–1961 yillarda ToshDavMida tahsil olgan. 1961–1962

yillarda ToshDavMi I-Jarrohlik klinikasida anestziolog, 1962–1963 yillarda esa ToshDavMi Normal anatomiya kafedrasida assistenti lavozimida ishlagan.

O'z mehnat faoliyati davomida ilmiy pedagogik ishlariga zo'r qiziqish bilan qaradi. 1963–1966 yillarda O'zFA Yadro fizikasi instituti aspiranti, 1966–1975 yillarda ToshDavMining Biofizika laboratoriyasida kichik va katta ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan. Bundan tashqari, 1975–1990 yillarda ToshDavMi Biologiya kafedrasida mudiri, 1990–2005 yillarda II-ToshDavMi Tibbiyot biologiyasi va genetika

kafedrasida mudiri, 2005 yildan TTA Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrasida professori lavozimlarida ishlaganini aytish mumkin.

Po'lat Toshxo'jayevning ilm-fan sohasiga qo'shgan hissasi, shogirdlar tayyorlashdagi qimmatli o'g'itlari tahsinga sazovor. Mehnat faoliyati davomida Po'lat Toshxo'jayev 1976–1981 yillar ToshDavMi kasaba uyushmasi raisi, 1981–1989 yillarda Sanitariya-gigiyena fakulteti dekani sifatida faoliyat yuritdi. 1990–1991

*Xotira uyg'onsa go'zaldir*

## YAXSHILAR XOTIRASI MUQADDASDIR

yillarda esa II-ToshDavMi Davolash fakulteti dekani, 1991–2005 yillarda esa II-ToshDavMi o'quv ishlari prorektori lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Ilm fidoiysi 1972 yili "Компенсаторно приспособительные процессы в некоторых органах пищеварительной системы при резекции желудка по Бильрот I и Бильрот II" mavzusida Tibbiyot fanlari doktori dissertatsiyasini yoqlagan. Uning rahbarligi ostida juda ko'plab ibratli ta'limiy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirildi. Ustozning rahbarligida 3 nafar fan doktori va 14 nafar fan nomzodlari tayyorlan-



gan. Po'lat Toshxo'jayev 150 dan ortiq ilmiy maqolalar va o'quv-ustlubiy qo'llanmalar 1 ta Biologiya o'quv darsligi, 2 ta monografiya va 20 dan ortiq o'quv qo'llanmalar muallifi hisoblanadi.

Shu yilning 2 aprel kuni hurmatga sazovor inson, ilm-fan fidoiysi bu dunyodan ko'z yum-

di.

Po'lat Toshxo'jayevni tibbiyot sohasida malakali, iqtidorli ilmiy salohiyatli shifokorlarni tayyorlashda qo'shgan hissasi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, yoshlar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ilmga mehr ruhida tarbiyalash yo'lidagi erishgan muvaffaqiyatlari ko'pchilik yoshlar uchun ibrat namunasidir.

Zero, yaxshilar yodi, ular xotirasi muqaddasdir...

**TTAning Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrasida xodimlari va shogirdlari**



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LOV QILADI

(2022 yil aprel)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	2-son ichki kasalliklari va endokrinologiya	assistent – 1,0
2.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent – 0,25
3.	1-son akusherlik va ginekologiya	kafedra mudiri – 1,0
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
1.	2-son akusherlik va ginekologiya	katta o'qituvchi – 1,0 assistent – 1,0
2.	1-son travmatologiya, ortopediya va harbiy dala xirurgiyasi	assistent – 1,0
3.	Onkologiya	assistent – 1,0
<b>Tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	Normal va patologik fiziologiya	patologik fiziologiya assistent – 1,0 normal fiziologiya dotsent – 0,5
2.	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	reabilitologiya, xalq tabobati assistent – 0,5 jismoniy tarbiya – assistent – 1,0
3.	Xirurgiya va transplantologiya	assistent – 0,75
4.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari	assistent – 1,0
5.	Ftiziatriya va pulmonologiya	assistent – 1,0
6.	Psixiatriya va narkologiya	assistent – 0,5
7.	2-son travmatologiya, ortopediya, harbiy dala xirurgiyasi va neyroxirurgiya	neyroxirurgiya assistant – 1,0
8.	2-son ichki kasalliklar propedevtikasi	katta o'qituvchi – 1,0
<b>Tibbiy profilaktika fakulteti</b>		
1.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent – 1,0
<b>Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMH fakulteti</b>		
1.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	assistent – 1,0
2.	Jamoat salomatligi va menejment	katta o'qituvchi – 1,0
3.	Farmakologiya	dotsent – 1,0
4.	Tibbiy radiologiya	assistent – 0,5

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi. Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir  
Bepul tarqatiladi